

7-10-2019

ABOUT GERMAN COLLOQUIAL SPEECH

Rufina Sharopovna Bozorova
Namangan State University teacher

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Bozorova, Rufina Sharopovna (2019) "ABOUT GERMAN COLLOQUIAL SPEECH," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 3 , Article 38.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/38>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

ABOUT GERMAN COLLOQUIAL SPEECH

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

NEMIS KUNDALIK MULOQOT TILI TO'GRISIDA

Bozorova Rufina Sharopovna

Namangan davlat universiteti

Fakultetlararo chet tillar kafedrasini nemis tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tili o'rganilayotgan (Germaniya) mamlakat og'zaki nutqining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Xalqning kundalik hayotidagi muloqotning turli shakllari berilgan.

Kalit so'zlar: nemis tilidagi og'zaki nutq, rasmiy, kundalik, badiiy, adabiy til, so'zlashuv, muloqot, xalq, xususiyat, dialektlar, xorijiy til.

О НЕМЕЦКОЙ ОБИХОДНОЙ РЕЧИ

Бозорова Руфина Шароповна

Наманганский государственный университет учитель

Аннотация. Язык – отражение истории народа, его жизни и культуры. В статье говорится о сущности обиходной немецкой речи, её видах, особенностях их употребления в будничной жизни. В статье даны примеры, имеющие национальную окраску.

Ключевые слова: обиходная речь, литературный язык, обиходно-разговорный язык, диалект, ситуация, коммуникация, повседневная речь.

ABOUT GERMAN COLLOQUIAL SPEECH

Bozorova Rufina Sharopovna

Namangan State University teacher

Abstract: This article is about characteristics the German colloquial speech, their art, types and essence. Language is the resource of communication between the people.

Keywords: colloquial speech, German, types, art, official speech, social visualized, communication, language, literary language.

Adabiy til grammatika, lug'at va fonetikaning o'ziga xos qoidalariga asoslangan bo'lib, ularga xos bo'lgan o'ziga xoslikni o'rganmay turib, chet tilini bilish mumkin emas.

Og'zaki nutq yozma badiiy nutqdan farqli o'laroq, o'z tarixiga ega. Kundalik muloqot nutq mohiyatini aniqlashning qiyinligi tili o'rganilayotgan mamlakat (Germaniyadagi) muhitiga bog'liq bo'lib, turli dialektlarni o'zida aks ettiradi. Bular kundalik muloqotning norasmiy sharoitlarida ishlatiladi.

XXI asr tilshunosligi tilni faqatgina muloqot va idrok vositasigina emas, balki millatning madaniy asosi deb ham hisoblaydi va uni faol ravishda rivojlantiradi. Ushbu yondashuvning asosiy poydevori V. Humboldt, A.A. Potebni va boshqa olimlarning asarlaridan kelib chiqqan. Masalan, V. Humboldt shunday deb ta'kidlaydi: "Xalqim tilining chegaralari mening dunyoqarashim chegarasidir". [1]

Xorijiy tilda soʻzlashuv nutqi sifatida turli xil nomlar mavjud: Alltagsdeutsch, Gemeinsprache der Gebildeten, Alltagsrede, Umgangssprache. Nemis adabiyotida kundalik muloqot, bir tomondan, dialektlar (Mundart), boshqa tomondan esa adabiy va yozma nutq bilan farqlanadi. Biroq, adabiy til va dialektlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlgani uchun, kundalik nutqning aniq chegaralarini belgilash juda qiyin. Ayrim nemis olimlari nemis tilining ogʻzaki nutqini adabiy til va dialekt kabi ijtimoiy qatlamlar oʻrtasida “ijtimoiy qatlam” deb atashadi.[1]

Nemis olimlarining aksariyati, nemis kundalik muloqoti nemis milliy tilining boshqa tillarga oʻxshamaydigan maxsus tili ekanligini eʼtirof etishadi. Nemis tilining kundalik muloqot soʻzlashuviga mahalliy germaniyaliklar ham eʼtibor qaratadilar. V.D.Devkin “Nemis tilidagi kundalik muloqot eng qadimiy va eng asosiy muloqot shakli” deb hisoblaydi. Uning fikricha, soʻzlashuv nutqicheklanmagan, biroz qisqartirilgan, vaziyatga moslashtirilgan, ogʻzaki nutqdir.

Masalan:

-*Kann ich Muti ein bisschen im Hof spielen?*

-*Ja, du kannst.*

-*Hast du deine Hausaufgaben gemacht?*

-*Nein, noch nicht.*

V.D.Devkinning taʼkidlashicha, kundalik muloqot har qanday kitobiy nutqdan farq qiladi, undan asosan kundalik muloqotdagi suhbatlarda foydalaniladi. Kundalik nutqda adabiy til meʼyorlariga mos kelmaydigan koʻp qonunlar mavjud. Soʻzlashuv nutqining xilma-xilligi haqida fikr yuritganda, uning quyidagi xususiyatlarini alohida taʼkidlashimiz lozim:

- ijtimoiy jihatdan rang-barang ekanligi;
- hududiy cheklanganligi;
- adabiy til va dialekt oʻrtasida joylashganligi;
- kundalik nutqqa asoslanganligi;
- eski nutqdan foydalanilishi;
- manzilningoʻziga xosligi va kitobiy soʻzlarning yoʻqligi.[2]

Ogʻzaki nutqdan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

- kundalik hayotda;
- oila davrasida;
- doʻstlar davrasida;
- norasmiy uchrashuvlarda;
- restoranlarda;
- jamoat transportida.

Bu tilda gapira olmaymiz:

- rasmiy uchrashuvlar va taqdimotlarda;
- taʼlim muassasalarida (darslarda, seminarlarda);
- maktab tizimida;
- barcha yozishmalarda;
- reklamalarda;
- rasmiy hujjatlar va xatlarda;

- so'rovnomalarni to'ldirish (chet elda bo'lish)da.

Kundalik nutq so'zlashuvi barcha kitobiy uslublardan farq qiladi, chunki u asosan og'zaki va kundalik hayotda ishlatiladi. Bunday holda, tilning og'zaki shakllari bilan og'zaki tilni aniqlash mumkin emas. Kundalik nutqda adabiy til me'yorlariga mos kelmaydigan ko'p qonunlar mavjud. Kundalik nutq uslubining asosiy vazifasi shundan iboratki, shaxsiy xarakterdagi norasmiy xabarlarni suhbatdoshga og'zaki-dialogik tarzda yetkazishdan iboratdir. Kundalik muloqotning namoyon bo'lishi standartlashgan bo'lib, ushbu uslubga xos quyidagi turlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Og'zaki-dialogik (shaxsiy va oila davrasida, kundalik ish va biznesda);

-og'zaki-monologik (xabarlar, kundalik muloqot mavzusidagi hikoyalar va nutqlarda, har xil hodisalar bilan bog'liq nutqlarda. Masalan: to'y, tug'ilgan kun);

-yozma-dialogik (shaxsiy xatlar va kundaliklarda).

Og'zaki nutq - badiiy nutq va dialekt o'rtasida milliy tilning namoyon bo'lishidir. Og'zaki nutq-ma'lum maqsadlarda tanlangan va aniq qonunga muvofiq tashkillashtirilgan foydalanish uslubidir. Lingvistik elementlarni qo'llash so'zlovchining ijtimoiy muhiti va uning ta'lim darajasiga bog'liqdir. Ular ba'zan badiiy, og'zaki nutq elementlari, ba'zan esa jargonlar ham bo'lishi mumkin. Kundalik uslubning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1. Qulaylik va erkinlik.
2. Fikrning emotsionalligi va subjektiv bahosi.
3. Aniqlik, oddiylik, obrazlilik va dinamik.
4. Yumor, hazil va satiraga moyillik.
5. Nutqning ifodali va ixchamligi. [5]

Til muhitida yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar bir-biriga mos keladi. Elisa Riesel kundalik uslubning asosiy vazifasi shaxsiy muloqotda kishilarning bir-birlarini norasmiy tushunishlaridadir, - deb hisoblaydi. Nemis tilining kundalik muloqot uslubida norasmiylik va oddiylik ma'lum leksik-frazeologik vositalar orqali ifodalanadi. Milliy tilning barcha uslublarida, mavzuga aloqador bo'lmagan jumlar kiritilishi yoki so'zma-so'z konstruksiyalardan foydalanish, oilaga xos yoki qo'pol so'zlarni ishlatish kundalik uslubga imtiyoz sifatida qaraladi. Kundalik muloqot uslubining eng muhim til xususiyatlaridan biri bu har xil turdagi parazit so'zlarni og'zaki muloqotda qo'llashdir [5]:

- a) modal so'zlar: *wohl, gewiß, sozusagen, kurz* v.b.;
- b) luqma tashlashda ishlatiladigan so'zlar, *oh, au, bums, zum Teufel* v.b.;
- c) yuklamalar: *ja, doch, einmal* v.b.;
- d) so'roqso'zlar: *nicht wahr? Wirklich?* v.b.;
- e) ravishlar: *so, natürlich* v.b.;
- f) iboralar: *Moment mal! Was Sie nichtsagen!* v.b..

Kundalik hayotda insonlar nutqida *wer weiß wie* (kim bilsin), *Gott weiß wie* (Xudo biladi), *der Teufel weiß wie* (Shayton biladi)...kabi iboralarni ham uchratish mumkin. *Er ist schon wieder wer weiß wo gewesen.* (U yana shu yerda, kimbilsin u qayerdaedi.) *Ich werde der Teufel weiß wann mein Geld zurückbekommen.* (U pulni qachon qaytib olishimizni shayton biladi).

Kundalik muloqotning erkin soʻzlashuviga xos xususiyati - odamlar, narsalar, joylarni *Ding, Zeug, Sache* kabi parafrazalar, shuningdek *da* ravishdoshi bilan muvofiqlikda qoʻllashdir: *Sie hat sich schon wieder so ein Ding, solche Dinger (solches Zeug, solche Sachen) gekauft* (U oʻsha yerden bir nima sotib oldi)– *Der Dingsda hat mir gesagt*.

Kundalik muloqotning lingvistik xususiyati dialektga xos soʻzlar hamda vulgar soʻzlarning koʻp ishlatilishida namoyon boʻladi. Masalan, Berlinda sigareta qoldiqlarini *Kometem (Kippen)* deb atashsa, Venada *Tschicks* deyishadi. Fonetik sohada soʻz va iboralar beparvolik bilan tashlab ketiladi yoki oxirigacha talaffuz qilinmaydi: *raus, runter, dran, aufn Berg, orntlich* (ordentlich), *‘n Hans, ‘n Puppe, soll’ s ‘n sein* (Was soll es denn sein?), *nich, nisch u a.*

Ayniqsa, kundalik uslubning grammatik meʼyorlarida norasmiylikning oʻziga xosliginiyaqqol sezish mumkin. Shuningdek, jumlar oʻrtasida son-sanoqsiz qisqartirishlarni uchratish mumkin: *“Bist du müde?” – “I wo. Und du?” – “Natürlich, sogar sehr. Aber trotzdem. Ich werd’ schon”*. Shuni ham taʼkidlab oʻtish joizki, koʻplik shakli “s” qoʻshimchasi bilan yasaladigan (Masalan, *Mädels, Jungens, Bengels, Kumpels, Arbeiters*) soʻzlari ham qoida boʻyicha ogʻzaki nutqqa xosdir.

Kundalik uslubda barcha maʼruzalar, hikoyalar va suhbatlar hissiy va koʻpincha baholovchi xarakterga ega. Ushbu xususiyatni roʻyobga chiqarishda quyidagilar muhim rol oʻynaydi: *ein phänomenales Konzert* (ajoyib bir kontsert), *ein ganz ausgemachter Lump* (juda shafqatsiz), *ein 150 prozentiger Bürokrat* (150 foiz byurokrat), *goldrichtig* (mutlaqo toʻgʻri), *heilfroh* (baxtli). Hissiy munosabatlar, nutqda aks ettirilgan koʻplab mulohazalarda: *o weh!* (Schmerz-Ogʻriq), *toi-toi-toi* (um etwas nicht zu “verrufen”-hech narsa uchun “ayblamaslik”), *ach Käse!* (oh pishloq!), *Verdammich!*, *Verflucht!*, *Himmlisch!*, *Unsinn!*, *Quatsch!* (Qani, laʼnat!) [5]

Kundalik muloqotda talabalar va oʻquvchilar nutqida ham bir vaqtning oʻzida ishlatiladigan koʻpgina soʻzlar, iboralar va jargonlarni uchratish mumkin: *pauken, büffeln, ochsen* (tushunmasdan yodlash, yaʼnirus tilidagi “зубрить” soʻzi); *durchfliegen* (sinovdan oʻtmaslik), *er ist aus dem Amt geflogen* (entlassen worden) *exen* (exmatrikulieren, entlassen, kündigen). Koʻp soʻzlar ogʻzaki nutqda koʻchma maʼnoda ham qoʻllaniladi: *das Geklimper* (über das Klavierspiel); *Ich werfe deine Heule* (Radio) *raus* -(Men sizning ovozingiz (radio)ni tashlayman); *Komm, ich zeige dir meine Bude* (eine Wohnung) -(Kel, men senga kulbam (kvartiram) ni koʻrsataman).

Kundalik uslubning soʻzlashuvi yaqqol namoyon boʻladigan aniqlik, tasvirva soddaligi bilan tavsiflanadi. U jamiyatning norasmiy doirasidagi muloqotni oʻzida aks ettiradi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tabaqalanish (ishchilar, tadbirkorlar, talabalar v.b.) va funktsional stilistik differentsiatsiyalarni oʻzaro bogʻlashda namoyon boʻladi.

Kundalik muloqotda tabiiylik va soddalik maʼlum leksikani tanlashda taʼsir koʻrsatadi (“**gucken**” statt „**sehen**“, „**kriegen**“ statt „**bekommen**“). (“gucken” (qaramoq) oʻrniga “sehen”, “bekommen” oʻrniga “kriegen”).

Haqiqiy nutqning funktsional uslubida tilning mexanizmi har qanday qatʼiylkdan ehtiyot boʻlishini va har doim yangi, hozirgacha nomaʼlum boʻlgan narsalarni izlashda qanday ishlashini koʻrish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tili o'rganilayotgan mamlakat (Germaniya) ning kundalik nutqini o'zbek talabalariga o'rgatishda ko'proq bizning milliy mentalitetimizga xos tarzda yondashuv talab etiladi. Nimaga deganda biz o'rgatayotgan chet tili asosan sun'iy ravishda amalga oshiriladi. Shuni hisobga olib kundalik muloqotda uchraydigan ba'zi qisqartmalardan kerakli joylarda oqilona ishlatish yo'llari haqida keng ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir.

References:

- 1.Maslova V.A. Lingvokulturologiya: Ucheb.posobie dlya stud. vissh. ucheb.zavedeniy / V.A. Maslova.- M.: Akademiya, 2001.- 208 s. 5.
- 2.Jirmunskiy V.M. Istoriya nemetskogo yazika. –M.:Visshaya shkola, 1985.
- 3.Vinogradov V.V. Osnovnie tipi leksicheskogo znacheniya slova. IYASH -1981. №5.
- 4.Barxudarov L.S. Urovni yazikovoy ierarxii i perevod. – Tetradi Perevodchika M 1969.
5. E. Riesel, E.Schendels.Deutschestilistik 2-qism.M.:Visshaya shkola, 1975.